

PUDRAT SHARTNOMASI

2022 y. «19»8

69-7-96-MT/2022-son

Kattaqo'rg'on tumani

"MUNDIYON DIPLOMAT SARMOYA" MCHJ, keyingi o'rinlarda «Pudratchi» deb yuritiladi. O'zining (nizomi, ustavi,) asosida ish yuritiladi rahbari S.XOLOV nomidan, bir tomondan Kattaqo'rg'on tumani maktabgacha ta'lim bo'limi keyingi o'rinlarda «Buyurtmachi» deb yuritiladi, o'zining asosida ish yurituvchi U.Ernazarov nomidan, ikkinchi tomondan mazkur shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar.

1. SHARTNOMANING PREDMETI

1.1. Ushbu shartnoma bo'yicha «Pudratchi» «Buyurtmachi»ning buyurtmasiga asosan Kattaqo'rg'on tumani maktabgacha bo'limiga qarashli 29-sonli Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti binosi joriy ta'mirlash ishlarini va loyiha-smeta, ekspertiza hujjatlari xarajatlarini bajarishni, «Buyurtmachi» esa bajarilgan ishlarni qabul qilib olishni hamda to'lovni amalga oshirishni o'z zimmasiga oladilar.

2. SHARTNOMA BUYICHA KELISHUV NARXLAR

Mazkur shartnomaning umumiy narxi "Etender.uzex.uz" maxsus axborot portalida 2022-yil 04-Avgust kuni LOT- № 22110012130640 raqami bilan e'lon joylashtirilgan va 2022-yil 17-Avgustdagi № 130640 tanlov komissiyasining electron bayonnomasi bilan tasdiqlangan ishlar qiymati barcha soliqlar va loyiha-smeta, ekspertiza hujjatlari xarajatlarini hisobga olgan holda 16 272 722 (O'n olti million ikki yuz etmish ikki ming etti yuz yigirma ikki) so'mni tashkil etadi.

3. QURILISH ISHLARINI BOSHlash, BAJARISH VA TUGATISH BO'YICHA SHARTNOMAVIY MUDDATLAR

Qurilish ishlarini bajarish muddati mazkur shartnomaning 2.3. bandida ko'rsatilgan muddatgacha amalga oshiriladi.

Shartnomadagi 4.1 bandida ko'rsatilgan avans mablag'lari "Pudratchi"ning tegishli hisobvarag'iga kelib tushgandan so'ng qurilish ishlari boshlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 24-avgustdagi 241-sonli Qaroriga asosan budjet tashkilotlari va budjet mablag'lari oluvchilarning tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) xarid qilish bo'yicha so'mmasi bir milliard so'mgacha tuziladigan shartnomalarida 30 foiz miqdorida oldindan to'lovni amalga oshirish nazarda tutiladi. Taraflar mazkur Qarorga amal qilishi shart.

«Buyurtmachi» tomonidan qurilish ishlarini bajarish davrida «Pudratchi»ga o'zi tomonidan xarid qilingan qurilish materiallarini taqdim qilishi mumkin.

Qurilishni to'xtab qolganligi uchun sababchi bo'lgan tomon buning oqibatida kelib chiqadigan har qanday kamomad yoki javobgarlikni o'z zimmasiga oladi.

Qurilishni tugallab foydalanishga topshirish ikki tomonlama hisobvaraqa-faktura tasdiqlangandan so'ng qurilish ishlari tugatilgan deb hisoblanadi.

4. TO'LOV SHARTI VA TARTIBI

«Buyurtmachi» ta'mirlash ishlarini boshlash uchun «Pudratchi»ga shartnoma narxining 30% yoki 4 881 816 (To'rt million sakkiz yuz sakson bir ming sakkiz yuz o'n olti) so'm miqdorda oldindan to'lov amalga oshiriladi. «Buyurtmachi» tomonidan yakuniy to'lov «Pudratchi» ishlar bajarilganligini tasdiqlovchi xujjat taqdim qilgandan so'ng amalga oshiriladi. Yakuniy to'lovning miqdori 11 390 906 (O'n bir million o'ch yuz to'qson ming to'qqiz yuz olti) so'mni ya'ni, kelishilgan summaning 70 % ni tashkil etadi va bu yakuniy to'lov 2022-yil 31-dekabrgacha amalga oshiriladi.

«Buyurtmachi» to'lovni pul o'tkazish yo'li bilan amalga oshiradi.

«Pudrat» tashkiloti tomonidan shartnomada ko'rsatilgan summadan oshiqcha bajarilgan ishlar uchun «Buyurtmachi» tomonidan to'lovlar amalga oshirilmaydi.

5. PUDRATCHINING MAJBURIYATLARI

“Pudratchi” qurilish ishlarini shartnomada kelishilgan muddatlarda boshlash, tugatish va foydalanishga topshirish majburiyatini oladi.

“Pudratchi” maxsus qurilish ishlarini bajarish uchun maxsus yollanma pudratchi tashkilotlarni jalb qiladi.

Agar qurilish mazkur shartnomada ko'rsatilgan muddatda pudratchining aybi bilan foydalanishga topshirilmasa, u holda buyurtmachiga har bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi bajarilmagan ishlar yoki ko'rsatilmagan xizmatlar bahosining 50 foizidan oshib ketmasligi lozim.

Penyani to'lash shartnoma majburiyatlarini buzgan tarafni ishlarni bajarmaslik yoki xizmatlarni ko'rsatmaslik oqibatida yetkazilgan zararni qoplashdan ozod etmaydi.

Agar bajarilgan ishlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar sifati, assortimenti va navi bo'yicha standartlar, texnik shartlar, namunalarga (etalonlarga) qonunchilikda yoki xo'jalik shartnomasida belgilangan boshqa majburiy shartlarga mos kelmasa, buyurtmachi ishlarni qabul qilish hamda ularning haqini to'lashni rad etib, pudratchidan sifati lozim darajada bo'lmagan ishlar qiymatining 20 foizi miqdorida jarima undirib olishga, agar ishlar haqi to'lab qo'yilgan bo'lsa, to'langan summani belgilangan tartibda qaytarishni talab qilishga haqlidir. Sifati lozim darajada bo'lmagan ishlar, xizmatlar ko'rsatilganligi uchun jarima pudratchidan akseptsiz tartibda undirib olinadi.

Jarimani undirish to'g'risidagi to'lov talabnomasi bank muassasasiga ishlarning, xizmatlarning sifati, assortimenti va navi lozim darajada emasligi to'g'risidagi dalolatnoma tuzilgandan keyin o'n kun ichida taqdim etiladi. Jarimani undirish to'g'risidagi to'lov talabnomasi belgilangan o'n kunlik muddatni buzgan holda taqdim etilgan hollarda, jarimani undirish belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Pudratchi shartnomada nazarda tutilgan mablag' doirasida ishlarni bajaradi va shunga muvofiq bajarilgan ishlar to'g'risida hisobvara-q-fakturani tuzadi.

6. BUYURTMACHINING MAJBURIYATLARI

Shartnomaning 4.1. va 4.2. bandlari buzilsa, «Buyurtmachi» ko'rsatilgan ishlar, xizmatlar haqini o'z vaqtida to'lamaganlik uchun pudratchiga o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4 foizi miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorida penya to'laydi.

«Buyurtmachi» ta'mirlash ishlarini o'z vaqtida belgilangan standartlarga va amaldagi qonunchilikka asosan qabul qilib oladi.

«Buyurtmachi» tasdiqlangan smetasiga muvofiq budjetda nazarda tutilgan mablag' doirasida shartnoma tuzadi va shartnoma summasiga muvofiq hisobvara-q-fakturani «Pudratchi» bilan birgalikda tuzadi

7. NIZOLARNI HAL QILISH

Taraflar shartnomada ko'rsatilgan majburiyat va shartlarni bajarmagan taqdirlarida O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi va “Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida”gi qonuni hamda boshqa qonun hujjatlari asosida javobgar bo'ladilar.

Kelishmovchiliklar va bahslar kelib chiqqan taqdirda, tomonlar, qoidaga ko'ra, mustaqil ravishda ularni sudgacha hal etish choralarini ko'radilar.

Tomonlar kelishmovchilik va bahslarni hal etish uchun bevosita sudga murojaat qilishga haqlidir.

8. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI

Mazkur shartnoma taraflar tomonidan imzolaniib, g'aznachilik bo'linmasida majburiy ro'yxatga olingan kundan boshlab kuchga kiradi va 2022-yil 31-dekabrgacha amal qiladi.

Shartnomaning amal qilish muddatini tugashi tomonlarni javobgarlikdan ozod qilmaydi

9. FORS-MAJOR HOLATLAR

Fors-major natijasida majburiyatlarni bajarilmasligi holatlari kelib chiqsa va bu holatlar mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005-yil 15-fevralidagi 63-sonli "Yengib bo'lmaz kuch (fors-major) holatlarining mavjudligini tasdiqlash mexanizmini kiritish to'g'risida"gi qarorida ko'zda tutilgan shartlarda tomonlar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarni qisman yoki to'liq bajarilishidan ozod etiladi.

Mazkur shartnomani bajarmagan yoki lozim darajada bajarilmasa tomonlar O'zbekiston Respublikasi «Xo'jalik yurituvchi subyektlari faoliyatining shartnomaviy – huquqiy bazasi to'g'risida»gi qonuni va O'zbekiston Respublikasining boshqa amaldagi qonunlari talablari bo'yicha javobgar bo'ladi.

10. BOSHQA SHARTLAR

Ushbu shartnomada tomonlarning ko'zda tutilmagan o'zaro munosabatlari O'zbekiston Respublikasi qonunlari bilan tartibga solinadi.

Mazkur shartnomaga kiritiladigan barcha o'zgarishlar va qo'shimchalar yozma shaklda tuzilishi va taraflar tomonidan imzolanishi kerak.

Mazkur shartnomaning bekor qilinishiga, to'xtatilishiga asos amaldagi qonunchilikka muvofiq belgilanadi.

10.4 Mazkur shartnoma har bir tarafga bitta nusxadan, jami ikki nusxada tuziladi va har ikkala nusxa ham teng yuridik kuchga ega.

11. KORRUPSIYAGA QARSHI SHARTLAR

Tomonlar:



Tomonlar, ularning affilangan (o'zaro bo'lmagan) shaxslari va xodimlari, ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarni bajarishlari davomida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari talablarining buzilishiga olib keladigan va/yoki korrupsiya xarakteriga ega bo'lgan, shu jumladan (ammo bu bilan cheklamay) pora berish yoki berishni va'da qilish, ta'magirlik, pora olishga bevosita yoki bilvosita rozi bo'lish xatti-harakatlari/harakatsizliklarini sodir etmaydilar.

Tomonlar, ularning affilangan (o'zaro bo'lmagan) shaxslari va xodimlari boshqa Tomonning xodimlari yoki vakolatlangan vakillarini qandaydir tarzda rag'batlantirishdan, shu jumladan pul so'mmalari, sovg'alarni taqdim etish, ularning manziliga xizmatlarni beg'araz ko'rsatish yoki bu xodim yoki vakolatlangan vakil tomonidan uni rag'batlantiruvchi Tomon foydasiga qandaydir xatti-harakatlarni/harakatsizliklar bajarilishini ta'minlashga qaratilgan ishlarni bajarishdan voz kechadilar deb ma'lum qiladilar.

Tomonda ushbu Shartnomaning 11.1-bandida belgilangan talablarni buzish sodir etganligi yoki sodir etilishi mumkinligi to'g'risidagi shubhalar yuzaga kelgan holda, tegishli tomon bu haqda ikkinchi Tomonni xabardor qilish, korrupsiya bilan kurashish sohasidagi O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarning normalari buzilganligi faktining rad etib bo'lmaydigan dalillari mavjud bo'lgan holda esa, amaldagi qonun hujjatlarda belgilangan tartibda vakolatlangan organlarni ham xabardor qilish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

12. TARAFLARNING YURIDIK MANZILLARI VA REKVIZITLARI

PUDRATCHI	BUYURTMACHI
MUNDIYON DIPLOMAT \$ARMOYA" MCHJ	Kattaqo'rg'on tuman maktabgacah ta'limi bo'limi
Manzil: Kattaqo'rg'on tumani mundiyon qishlog'I	Manzil: Kattaqo'rg'on tumani M.Ulug'bek mfy A.Navoiy ko'chasi 5-uy
h/r: 20208000500419721001	ShH/R: 100022860182157091100251047

MFO: 00275	STIR: 207266845
STIR: 303152133	Moliya vazirligi Yagona g'azna hisobvarag'i: 23402000300100001010
Bank nomi: OATB AGROBANK Payshanba filiali	Bankning nomi: Markaziy bank Toshkent shahar XKKM
	MFO: 00014 STIR: 201122919
 Rahbar  S.Xolov (imzo)	Rahbar  nazarov M.O'.



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI
SAMARQAND VILOYATI ADLIYA BOSHQARMASI
KATTAQO'RG'ON TUMAN YURIDIK XIZMAT KO'RSATISH MARKAZI

141408, Kattaqo'rg'on tumani, Kadan mahallasi, Mustaqillik ko'chasi

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RI SIDA HUQUQIY XULOSA
№ HQ62468681**

1. Loyihaning turi.
Shartnoma.

2. Loyihaning nomi.
Kattaqo'rg'on tuman maktabgacha ta'limi bo'limi va "MUNDIYON
DIPLOMAT SARMOYA" mas'uliyati cheklangan jamiyati o'rtasidagi pudrat
shartnomasining loyihasi.

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot.
Shartnoma loyihasi, Kattaqo'rg'on tuman maktabgacha ta'limi bo'limi
tomonidan ishlab chiqilgan va Kattaqo'rg'on tuman yuridik xizmat ko'rsatish
markaziga huquqiy ekspertizadan o'tkazish uchun "e-huquqshunos" dasturi orqali
uchun 2022-yil 18-avgust kuni kiritilgan.

Loyiha O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining
666 – 685-moddalari, O'zbekiston Respublikasining 29.08.1998 yildagi "Xo'jalik
yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy huquqiy bazasi" to'g'risidagi
670-I-sonli, 22.04.2021 yildagi "Davlat xaridlari to'g'risida"gi 684-sonli qonunlari
hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 14.09.2021 yildagi "Shartnomaviy
munosabatlarni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi
PF-6313-sonli farmoni talablariga javob beradi.

Taraflar o'rtasida shartnoma predmeti, shartnomaning bajarilish muddatlari,
shartnomaning amal qilish muddati, hisob-kitob qilish tartibi, taraflarning
majburiyatlari, shartnoma shartlari yuzasidan kelib chiqishi mumkin bo'lgan
javobgarlik masalasi, nizolarni hal etish tartibi qonuniy kelishilgan, korrupsiyaga
qarshi qo'shimcha shartlar belgilangan hamda shartnomada taraflarning
rekvizitlarini, shartnoma tuzilgan sana va joy ko'rsatilgan.

Shartnoma loyihasida ko'rsatilgan shartnoma shartlari, taraflarning
javobgarligi me'yori va nizolarni hal etish tartibi amaldagi qonunchilik talablariga
mos keladi va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

Markaz bosh yuriskonsulti



M. Rustamov

2022-yil 19-avgust

Ўзбекистон Республикаси Самарқанд вилояти
Каттақо'ғ'он туман ҳокимлиги ҳузуридagi
Тadbirkorlik sub'ektlarini ro'yxatdan o'tkazish
INSPEKSIYASI

Yuridik shaxsni davlat ro'yxatidan o'tkazish to'g'risida
GUVOHNOMA

Reestr dagi tartib raqami 09

N 2066

13 Yanvar 2015 yil

Mazkur guvohnoma yuridik shaxs «MUNDIVON DIPLOMAT
SARMOYA» mas'uliyati cheklangan jamiyatga Katтақo'ғ'он tumani
Tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish inspeksiya
tomonidan berilgan.

1. Tashkiliy huquqiy shakli

TASH

1152

2. Molkenilik shakli

MSBT

142

3. Pochta manzili

MXOBT

1718215845

4. Yuridik shaxs kodi

KTUT

25380475

5. Tarmoq kodi

XXTUT

61110

6. Soliq to'lovchining
identifikatsion raqami

STIR

303152133

Qo'shimcha ma'lumotlar

Vakolatli organ rahbari

M.O'

13 01 15
2066
Y.Эгамбердиев

Протокол закупочной комиссии по конкурсу лот № 130640 на приобретение Каттақўрғон туман мактабгача таълим бўлимига қарашли 29-МТТ биносини жорий таъмирлаш

Способ проведения электронный

Дата 17.08.2022

Время рассмотрения 17.08.2022 10:49

Конкурсная комиссия Каттақўрғон туман мактабгача таълим бўлими, (Далее – Комиссия) в составе:

Председатель комиссии	ERNAZAROV ULUG'BEK NARZULLAYEVICH	Раҳбар	Каттақўрғон туман мактабгача таълим бўлими
Секретарь комиссии	QUDRATOV SHANZODJON OZODJON O'G'LI	Секретарь комиссии Комиссия	МТБ
Член комиссии	SODIQOV ELYOR QILICHOVICH	Бош ҳисобчи	Каттақўрғон туман мактабгача таълим бўлими
Член комиссии	XUDOYQULOV MEXRIDDIN KAMOLIDDINOVICH	Мутахассис	Каттақўрғон туман мактабгача таълим бўлими
Член комиссии	ABDIYEV OTABEK TOLIBBOY O'G'LI	Мутахассис	Каттақўрғон туман мактабгача таълим бўлими
Член комиссии	SHIRINOV OBIDJON G'ANIQULOVICH	Туман мактабгача таълим эксплуатация бўлими мутахассиси	Каттақўрғон туман мактабгача таълим бўлими

Рассмотрев поступивших предложений со стороны участников по опубликованному объявлению на специальном информационном портале от 17.08.2022 года № лота 130640.

Метод оценки предложений – Бальный метод (Весовой коэф.технико-квалификационной части: 80.00 / Весовой коэф. ценовой части: 20.00)

Мин. балл: 4

Предмет закупки:

Наименование товара (работы, услуги)	Услуга по текущему ремонту нежилых зданий
Подробное описание	Каттақўрғон туман мактабгача таълим бўлимига қарашли 29-МТТ биносини жорий таъмирлаш
Количество товара	1.00
Единица измерения	
Цена товара (услуги) за единицу	16 378 595.00
Стартовая сумма	16 378 595.00
Валюта	UZS

По итогам рассмотрения поступивших предложений по технической части участникам присвоены следующие баллы:

Критерий №1 Танлов иштирокчиси томонидан тақдим қилинган лойиҳа-смета ҳужжатларига асосан бажариладиган ишларга сарфланадиган меҳнат ресурслари, машина ва механизмлар, қурилиш моллари ва ускуналардан иборат ресурслар ведомостини ўз ичига олган единичка.(Ушбу маълумотда хатолик бўлса балл берилмайди, фақатгина лойиҳа-смета ҳужжатларида кўрсатилган ишлар бажарилиши зарур, лойиҳа-смета ҳужжатларида кўрсатилмаган ишлар бажарилмаслиги зарур. Маълумот "excel" кўринишида бўлиши шарт.

Тип: Текстовое значение

Описание: Ушбу қурилиш иши 2021 йил 10 декабрдаги ПҚ-43 –сонли Президент Қарори ва 2021 йил 23 декабрдаги 147-7-96-Q/21-сонли Каттакўрғон туман ҳокимининг Қарорига асосан тузилган туман штаби аъзолари (туман прокурори, туман ҳокими ўринбосари, келишув асосидаги ДХХ ходими, туман ДСИ бошлиғи, туман ИИБ бошлиғи, туман департамент бошлиғи) ва туман ишчи гуруҳи аъзолари томонидан қаттиқ назорат қилинади.

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
AZIZJON ME'MOR MCHJ	50	Барча ҳужжатлар илова қилинди	0	Экспертная		
Мундиён Дипломат Сармоя МЧЖ	50	Талаб қилинган барча ҳужжатлар илова қилинди	50	Экспертная		

Критерий №2 Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 9 ноябрдаги 699-сонли Қарорида кўрсатилган қурилиш корхоналарининг рейтинг, яъни ишончлилик тоифаси-рейтинг баҳоси-ишончлилик даражаси-умумий бали ҳисобга олинади (Рейтинг юқориликка қараб балл берилади. "rating.mc.uz" дастуридан олинган ҳарфлардан иборат рейтингни скриншот файли, "tender.mc.uz" дастурининг шахсий кабинетида олинган рақамлардан иборат рейтинг балини скриншот файли илова қилиниши шарт)

Тип: Текстовое значение

Описание: Маълумотларнинг ҳаққонийлигига ва бириктириладиган файлларнинг қалбаки эмаслигига танлов иштирокчиси жавобгардир, агар ушбу ҳолатлар кузатилса танлов иштирокчиси автоматик равишда танловдан четлаштирилади ҳамда қонунда назарда тутилган тегишли жавобгарликка тортилади.

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
AZIZJON ME'MOR MCHJ	20	Барча ҳужжатлар илова қилинди	20	Экспертная		
Мундиён Дипломат Сармоя МЧЖ	20	Талаб қилинган барча ҳужжатлар илова қилинди	15.27	Экспертная		

Критерий №3 Давлат солиқ қўмитасининг расмий веб-сайтида шубҳали корхоналар рўйхатига киритилмаганлиги; қўшилган қиймат солиғи тўловчиси бўлса, унинг гувоҳномаси фаоллиги. Солиқлар ва йиғимларни тўлаш бўйича муддати ўтган қарздорликнинг мавжуд эмаслиги. Эълон жараёнида бўлган давр ҳолатига солиқ қарздорлиги мавжуд эмаслиги тўғрисидаги repository.soliq.uz дастуридан олинган штрих кодли маълумот

Тип: Текстовое значение

Описание: Маълумотларнинг ҳаққонийлигига ва бириктириладиган файлларнинг қалбаки эмаслигига танлов иштирокчиси жавобгардир, агар ушбу ҳолатлар кузатилса танлов иштирокчиси автоматик равишда танловдан четлаштирилади ҳамда қонунда назарда тутилган тегишли жавобгарликка тортилади.

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
AZIZJON ME'MOR MCHJ	10	Барча ҳужжатлар илова қилинди	10	Экспертная		
Мундиён Дипломат Сармоя МЧЖ	10	Талаб қилинган барча ҳужжатлар илова қилинди	10	Экспертная		

Оценка участников финансовой части составила:

Наименование участника	Стартовая сумма	Предлагаемая сумма	Сумма с учетом конвертации (UZS)	Применение преференции	Общее значение (UZS)	Дата предложения	Оценка стоимости (балл)
AZIZJON ME'MOR MCHJ	16 378 595.00	16 378 595.00 UZS	16 378 595.00	00.00	16 378 595.00	13.08.2022 12:48:20	19.87
Мундиён Дипломат Сармоя МЧЖ	16 378 595.00	16 272 722.00 UZS	16 272 722.00	00.00	16 272 722.00	13.08.2022 13:08:57	20.00

Итоговая оценка участников включая финансовой части составила:

Наименование участника	Общий балл по технической части	Общий балл по финансовой части	Итоговый балл
AZIZJON ME'MOR MCHJ	30	19.87	49.87
Мундиён Дипломат Сармоя МЧЖ	75.2704	20	95.2704

Закупочная комиссия по конкурсу лот № 130640 от 17.08.2022 года на приобретение Каттакўрғон туман мактабгача таълим бўлимига қарашли 29-МТТ биносини жорий таъмирлаш определила победителем:

Мундиён Дипломат Сармоя МЧЖ
303152133

и резервный исполнитель: AZIZJON ME'MOR MCHJ (305069899)

Проголосовали

Комиссия	Ф.И.О.	Голосование	Комментарии
Председатель комиссии	ERNAZAROV ULUG'BEK NARZULLAYEVICH	Согласен	
Член комиссии	SODIQOV ELYOR QILICHOVICH	Согласен	
Член комиссии	XUDOYQULOV MEXRIDDIN KAMOLIDDINOVICH	Согласен	
Член комиссии	SHIRINOV OBIDJON G'ANTIQULOVICH	Согласен	

Протокол закупочной комиссии подписан посредством ЭЦП